

Ibodullayev Bekzod Olimjon o'g'li

Turon universiteti magistranti

ibodullayevbekzod010@gmail.com

CHET TILINI O'RGANISHDA MOTIVATSIYANI SO'NDIRUVCHI OMILLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tilini o'rganish jarayonida motivatsiyani pasaytiruvchi omillar tahlil qilinadi. Motivatsiyaning barqarorligi va o'quvchilarning til o'rganish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratilib, eng keng tarqalgan to'siqlar o'rganiladi. Chet tilini o'rganish muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasiga bog'liq bo'lib, uni pasaytiruvchi omillar o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini susaytirishi, ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi va natijada til o'rganish samaradorligini kamaytirishi mumkin. Ushbu tadqiqot doirasida motivatsiyaning so'nishiga sabab bo'ladigan asosiy omillar o'rganilib, ularni bartaraf etish yo'llari muhokama qilinadi. Maqola chet tilini o'qituvchilarga, ta'lim tashkilotchilariga va til o'rganayotgan shaxslarga motivatsiyani oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda foydali hisoblanadi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, chet tili o'rganish, ta'lim psixologiyasi, ichki va tashqi omillar, o'quv jarayoni, motivatsion to'siqlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются факторы, снижающие мотивацию в процессе изучения иностранного языка. Особое внимание уделяется взаимосвязи между стабильностью мотивации и эффективностью освоения языка, а также анализируются наиболее распространенные препятствия. Успешность изучения иностранного языка во многом зависит от внутренней и внешней мотивации учащихся. Однако факторы, снижающие мотивацию, могут ослаблять интерес к языку, негативно сказываться на учебном процессе и, в конечном итоге, снижать его эффективность. В рамках данного исследования рассматриваются основные причины потери мотивации и обсуждаются пути их устранения. Статья будет полезна преподавателям иностранных языков, организаторам образовательного процесса и обучающимся, разрабатывающим стратегии повышения мотивации.

Ключевые слова: мотивация, изучение иностранного языка, психология обучения, внутренние и внешние факторы, учебный процесс, мотивационные барьеры.

Abstract: This article examines the factors that reduce motivation in the process of learning a foreign language. Special attention is given to the relationship between motivation stability and learning efficiency, as well as an analysis of the most common obstacles. The success of foreign language acquisition largely depends on learners' intrinsic and extrinsic motivation. However, factors that lower motivation can weaken interest in the language, negatively affect the learning process, and ultimately reduce learning effectiveness. This study explores the main causes of motivation loss and discusses ways to address them. The article will be useful for foreign language teachers, education organizers, and learners developing strategies to enhance motivation.

Keywords: motivation, foreign language learning, educational psychology, intrinsic and extrinsic factors, learning process, motivational barriers.

Kirish

Chet tilini muvaffaqiyatli va puxta o'rganish jarayoni ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, motivatsiya ulardan eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Motivatsiya o'quvchining ichki ishtiyoqlari, qiziqishlari va maqsadlariga bog'liq bo'lib, shuningdek, tashqi omillar – ta'lim tizimi, pedagogik yondashuvlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan ham chambarchas bog'liq.

Ammo har bir o'quvchi chet tilini o'rganish jarayonida qiyinchiliklar va to'siqlarga duch keladi. Ba'zi hollarda, bu qiyinchiliklar vaqtinchalik bo'lib, o'quvchi ularni yengib o'tishi mumkin. Biroq, ba'zi to'siqlar uzoq davom etsa, ular motivatsiyani so'ndiradi va xorijiy tillarni o'rganish jarayonini qiyinlashtiradi. Tadqiqot jarayonida chet tilini o'rganishda motivatsiyani pasaytiruvchi omillarni aniqlash va ularning oldini olish yo'llarini muhokama qilish maqsad qilib olingan.

Materiallar va uslublar

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi:

So'rovnomalar: O'quv markazlarida chet tilini o'rganayotgan turli yoshdagi o'quvchilardan so'rovnomalar olindi va suhbatlar o'tkazildi.

Adabiyotlar tahlili: Motivatsiya va til o'rganish psixologiyasi bo'yicha adabiyotlar o'rganildi.

So'rovnomalar va o'rganish natijalari asosida motivatsiyani pasaytiruvchi omillar aniqlanib, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilindi.

Natijalar va muhokamalar

Chet tilini o'rganishda motivatsiyaning pasayishiga olib keluvchi omillarni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ichki psixologik omillar

O'ziga ishonchsizlik – Ko'pchilik o'quvchilar chet tilini o'rganish jarayonida o'zlarini yetarlicha qobiliyatli deb hisoblamaydilar, bu holat esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini kamaytiradi.

Qo'rquv va xavotir – Til o'rganish jarayonida xatolardan qo'rqish, ayniqsa bu holat chet tilida bo'ladigan suhbat jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi va motivatsiyaning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ichki qiziqishning yo'qligi – Agar o'quvchi chet tilini majburan o'rganayotgan bo'lsa, u tezda motivatsiyasini yo'qotishi mumkin.

2. Tashqi omillar

O'qitish uslubining samarasizligi – O'quv jarayoni zerikarli yoki aksincha juda murakkab bo'lsa, bu o'quvchining tilga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi.

Til o'rganish muhitida o'quvchining yetarlicha qo'llab-quvvatlanmasligi – Oila, o'qituvchilar yoki do'stlar tomonidan yetarlicha rag'bat bo'lmasa, o'quvchi o'z maqsadlariga erishishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Amaliyot yetishmovchiligi – Chet tilini muloqotda qo'llash imkoniyati bo'lmasa, o'quvchilar o'rganilgan bilimlarini real hayotda ishlatishdan cho'chib, o'z motivatsiyasini yo'qotish holatlari kuzatiladi.

3. Ijtimoiy va madaniy omillar

Madaniy to'siqlar – Ayrim o'quvchilar chet tilining madaniy jihatlari bilan tanish bo'lmagani uchun bu tilga qiziqish bildirmasligi mumkin.

Jamiyatning ta'siri – Ba'zan atrof-muhit chet tilini o'rganishning ahamiyatini to'liq anglamaydi va o'quvchini rag'batlantirmaydi.

Xulosa

Ushbu omillarni aniqlash va bartaraf etish o'quvchilarning samarali o'qish jarayonini tashkil etish va ularning motivatsiyasini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar va til sohasi vakillari bu omillarga e'tibor qaratib, yanada samarali ta'lim usullarini ishlab chiqishlari ijobiy natijalar beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, chet tilini o'rganishda motivatsiyani pasaytiruvchi omillar turlicha bo'lishi mumkin. Ichki psixologik omillar, tashqi pedagogik to'siqlar va ijtimoiy-madaniy omillar o'quvchilarning til o'rganish jarayoniga bo'lgan qiziqishiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi usullar taklif etiladi:

Til o'rganishga yetarlicha muhit shakllantirish: Til o'rganish bo'yicha turli klub va guruhlarini tashkil qilish, o'quvchilarga chet tili bo'yicha muloqot qilish imkoniyatini yaratish.

O'qitish usullarini yangilab borish: Interaktiv metodlardan foydalanish, o'quvchilarning qiziqishlariga mos mashg'ulotlar o'tkazish.

O'ziga bo'lgan ishonchni oshirish: O'quvchilarga kichik yutuqlarni nishonlash orqali o'zlariga ishonch hosil qilishga yordam berish.

Ushbu strategiyalar chet tilini o'rganish jarayonida motivatsiyani saqlash va oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov, J.J. Chet tilini o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2012, 432 b.
2. Xoliqov, A. Pedagogik mahorat. Toshkent: IQTISOD – MOLIYA, 2011, 420 b.
3. Umirov, B.M. Psixologiya. Toshkent: Voris-nashriyoti, 2012, 272 b.
4. www.ziyouz.com
5. www.kitobxon.com